



**IZOHLI LUG‘ATLARDAGI FITONIMLAR IZOHI UCHUN  
ILLYUSTRATIV MISOLLARNI TANLASH MASALASI  
PROBLEM OF SELECTION OF ILLUSTRATIVE EXAMPLES FOR THE  
EXPLANATION OF PHYTONYMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES**

**Yakubova Gulchexra Ziyatovna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
mustaqil izlanuvchisi.*

*Qarshi xalqaro universiteti Filologiya va  
tillarni o‘qitish kafedrasida katta o‘qituvchisi  
[gyakubova5@gmail.com](mailto:gyakubova5@gmail.com)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10364965>

<https://orcid.org/0009-0005-8706-2785>

**Annotatsiya.** *Illyustrativ misollar izohli lug‘atlarning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Chunki lug‘atning bu qismi bosh so‘z uchun tayyorlangan izohning to‘g‘ri shakllantirilganligini dalillaydi. Tabiiyki, illyustrativ misollar ishonarli manbalardan olinishi zarur. Bu lug‘atning ishonarliligi va informativligini oshiradi. Lug‘at maqolalarida an’anaviy tarzda chap va o‘ng tomon qismlari mavjud bo‘ladi. Bunda “chap tomon” lug‘atda keltirilgan bosh so‘zlarni ifoda etadi. O‘ng tomonda bosh so‘z izohi; etimologik ma’lumot; uslubiy va grammatik belgi (zarurat tug‘ilganda); illyustrativ misol kabilar joylashadi.*

**Kalit so‘zlar.** *Illyustrativ misollar, qoraqosh, termin tizimlilik, barqarorlik, monosemantiklik, qo‘llanuvchanlik, kollokatsiya.*

**Abstract.** *Illustrative examples are considered one of the most important parts of explanatory dictionaries. Because this part of the dictionary proves that the explanation prepared for the main word is correctly formed. Naturally, illustrative examples should be taken from reliable sources. This increases the reliability and informativeness of the dictionary. Dictionary articles traditionally have left and right parts. In this case, the "left side" represents the main words listed in the dictionary. On the right side, there is an explanation of the main word; etymological information; stylistic and grammatical sign (if necessary); illustrative example.*

**Keywords.** *Illustrative examples, black eyebrows, term systematicity, stability, monosemanticity, applicability, collocation.*


**Kirish.** *O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarning so‘nggi nashri fitonimlarining izohi tahlilida aniqlangan muammolar ular uchun tanlangan illyustrativ misollarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Zero, izohning mukammal emasligi uni dalillash uchun tanlangan illyustrativ misolda ham o‘z aksini topadi. O‘zbek tili izohli lug‘atlardagi fitonimlar izohi uchun*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

illyustrativ misollarning tanlanishi bilan bog'liq muammolarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.



**3.2.1-rasm. Ilyustrativ misollar tanlash muammolarining turlari.**

Ilyustrativ misollarning umuman qo'llanmasligi holati fitonimlar uchun tayyorlangan o'zbek tili izohli lug'atidagi aksariyat lug'at maqolalarida uchraydi. Masalan, *qoraqosh (II)* leksemasi uchun quyidagi lug'at maqolasi tayyorlangan:

“QORAQOSH II *bot. shv.* 1 Qora tusli, bo'rtib chiqqan yo'li bor, kam etli shirin kuzgi qovun navi.


2 Sirti qalin to'rlangan, tusi och yashil, eti shirin va xushbo'y handalak turi”<sup>15</sup>.

Umuman, mualliflar *qoraqosh* fitonimi izohini biroz kengaytirishlari yoki mavjud uchun illyustrativ misol kiritishlari lug'at maqolasining samaradorligini oshirgan bo'lardi. Zero, maxsus lug'atlarda bu leksema ifodalaydigan tushuncha(lar) batafsil izohlangan. Masalan, “Biologiyadan qisqacha izohli lug'at” (2016) da *qoraqosh* leksemasi uchun quyidagi izoh keltirilgan: “*Qoraqosh – handalak (melo chandalak) va sariq qovun (M. zard) turlariga mansub ikki navning umumiy nomi. Asosan, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan*”<sup>16</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Keltirilgan ma'lumotni izohli lug'atga izohni boyituvchi manba sifatida ham, illyustrativ misol sifatida ham keltirish mumkin. Ma'lumot ham qovun, ham handalak haqida bo'lganligi sababli uni har *qoraqosh* fitonimining har ikki ma'nosi uchun umumiy tarzda qo'llash mumkin, deb hisoblaymiz. Ta'kidlash lozimki, izohli lug'atlarda fitonimlarning terminologik ma'nosi izohlanar ekan, bunda illyustrativ misol keltirish nihoyatda zarurdir. Albatta, *qoraqosh* leksemasi ifodalagani kabi tor soha doirasidagina tushunarli bo'lgan so'zlar bosh so'z sifatida tanlanganda, bunday amaliyot

<sup>15</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildli, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.229.

<sup>16</sup> Абдуллаев А. ва бошқ. Биологиядан қисқача луғат. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б.378.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aksariyat hollarda mushkul vazifa hisoblanadi. Aslida, bunday holatda maxsus lug‘atlar, korpus ma‘lumotlariga tayanish lozim edi. Zero, til korpuslari nafaqat universal leksikografik manba bo‘lib xizmat qiladi, balki bosma nashr lug‘atlariga illyustrativ misollar tanlashda asos vazifasini bajara oladi<sup>17</sup>.


**Natijalar va muhokama.** O‘zbek tilidagi lug‘atlarda illyustrativ misollar nafaqat ularni o‘zbekcha matndan topish qiyin bo‘lgan holatlarda, balki mualliflar tomonidan bunga hojat yo‘q, deb hisoblangan o‘rinlarda ham qo‘llanmagan. Bu haqida “Lug‘atning tuzilishi va undan foydalanish” qismida ham ta‘kidlab o‘tilgan: “Illyustrativ misol, misol-sitata ... ehtiyoj bo‘lgan hollarda berildi. Aksincha hollarda misol berish shart bo‘lmaydi”<sup>18</sup>. Ya‘ni izohli lug‘atlarda ma‘nosi yoki ma‘nolari izohlanmagan, boshqa so‘zga havola berilgan leksemalar, shuningdek, izohni dalillashga hojat yo‘q, deb hisoblangan o‘rinlarda illyustrativ misol qo‘llanmagan. Bu illyustrativ misollarning tadqiq obyektimiz bo‘lgan lug‘atlardagi maqolalarda doimiy komponent emasligidan dalolat beradi. Chunki ilmiy uslubda bitta tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq terminlardan foydalanish me‘yoriy holat sifatida qabul qilinmaydi. Bunday holatda muayyan tushuncha turli til birliklari orqali ifodalansa, bu o‘sha tushuncha bilan bog‘liq ilmiy xulosalarning noto‘g‘ri talqiniga olib kelishi mumkin. “Termin tizimlilik, barqarorlik, monosemantiklik, qo‘llanuvchanlik, aniqlik, to‘g‘rilik, shaffoflik va tarjimalilik xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim”<sup>19</sup>.

**Xulosa va takliflar.** Illyustrativ misol ikki birikma va bitta gap tarzida shakllantirilgan. Birikmalar o‘zbek tilidagi xususiy birikuvchili birikmalar asosida shakllantirilgan. Xorij tilshunosligida “kollokatsiya” termini bilan yuritiladigan va nutqiy jarayonda bir-birini taqozo qiladigan birikmalar asosida shakllantirilgan illyustrativ misol izohni dalillashda nihoyatda qulaydir. Zero, xususiy birikuvchili birikmalarda uni hosil qiluvchi a‘zoldan biri boshqasiga ishora qilib turadi. Boshqacha aytganda, xususiy birikuvchili birikmalarda a‘zoldan biri boshqasi bilan birikma hosil qilishni taqozo qiladi, ulardan biri talaffuz qilinganda, ikkinchisi til egalari xotirasiga keladi. Bunday birikmalar izohni dalillash uchun ko‘p hollara yetarli bo‘ladi. Jumladan, *qalampir* leksemasi izohi uchun keltirilgan birikmalarda ham shunday bir-birini taqozo qiluvchi a‘zolar mavjud. Zero, *achchiq* leksemasi *qalampir* leksemasi bilan tez-tez birikma hosil qiladi. Buni qidiruv tizimlari natijalari, shuningdek, milliy korpus so‘rovi ham ko‘rsatadi. Aslida, sanalgan leksemalar alohida talaffuz qilinganda ulardan ikkinchisini nutqiy voqelantirishga hojat ham qolmaydi. Chunki o‘zbek lisoniy olamida “achchiq qalampir” birikmasi barorlashayotgan birikma hisoblanadi. Shu sababli izohli lug‘at mualliflari *qalampir* leksemasining *garmdori* leksemasiga yo‘naltirilgan izohini dalillashda “achchiq qalampir” xususiy birikuvchili birikmasidan foydalanilgan. Keyingi illyustrativ misollarda *qalampir* o‘simligining terminologik ma‘nosi emas, balki umumtil birliigi sifatidagi ma‘nosini

<sup>17</sup> Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Aktiv Print, 2019. – B.88.

<sup>18</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.26.

<sup>19</sup> Kolarikova Z. Synonymy in English Botanical Terminology // SKASE Journal of Theoretical Linguistics. 2008. №3(1). – P.54-64.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

dalillashga xizmat qiladi. Nazarimizda, bu kabi o‘rinlarda terminologik ma’no uchun tayyorlangan illyustrativ misol ham kiritish lug‘atning informativligini orttirisgga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli, 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.26.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.229.
3. Абдуллаев А. ва бошқ. Биологиядан қисқача луғат. – Тошкент: Наврўз, 2016. – Б.378.
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Aktiv Print, 2019. – B.88.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 6 jildli, 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.26.
6. Kolarikova Z. Synonymy in English Botanical Terminology // SKASE Journal of Theoretical Linguistics. 2008. №3(1). – P.54-64.
7. Хутова Э.Р. Пословицы и поговорки с компонентом-фитонимом в английском и русском языках // Аргiori. Серия: Гуманитарные науки. 2018. №3. – С.1-6.
8. Церцвадзе М.Г. Семантическая классификация пословиц и поговорок с компонентом-фитонимом антропоцентрической направленности в русском и грузинском языках // Wschodnioeuropejskie czasopismo naukowe. 2016. №14. – С.73-74.

